

## O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI TARIXI, MAZMUNI HAMDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Abdurasulov Abduraxim Abdurashid o‘g‘li**

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

[abdurasulovabduraxim3@gmail.com](mailto:abdurasulovabduraxim3@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlari tarixi, mazmuni hamda ijtimoiy pedagogik ahamiyati, xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mazmuni, maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, amalga oshirish mexanizmi, xalq qo‘shiqlarining ta’lim tarbiyadagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar keng yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** xalq qo‘shiqlari, folklor, laparlar, milliy tarbiya, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, g‘oyaviy-siyosiy, axloq, fazilat.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассмотрены история, содержание и социально-педагогическое значение узбекских народных песен, содержание, цель, принципы, закономерности, механизм реализации, формирование морально-нравственных качеств учащихся посредством народных песен. Мнения о значении образование в образовании широко обсуждаются.*

**Ключевые слова:** народные песни, фольклор, лапары, национальное воспитание, воспитание, духовность, идейно-политическая, нравственность, добродетель.

### ABSTRACT

*In this article, the history, content and socio-pedagogical importance of Uzbek folk songs, the content, purpose, principles, laws, mechanism of implementation, the formation of moral and moral qualities of students through folk songs Opinions about the importance of education in education are widely discussed.*

**Key words:** folk songs, folklore, lapars, national education, education, spirituality, ideological-political, morality, virtue.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi, qonuniyatlari va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili, madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki, qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim-tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi"deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman" – degan fikrlari yaqqol dalilidir.

Xalqimizning o'tmish an'analari, milliy urf-odatlarini, milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analari saqlash va rivojlantirish, yosh avlodga san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamjihatlik, madaniy-ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbek qo'shiqchilik san'atining tarixi juda ko'hna bo'lib, u insoniyatni shakllanish jarayoni bilan bog'liqdir. Xalq qo'shiqlari ajdodlarimizning ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, turli tabiat hodisalariga taqliddan ijro etilgan marosim kuylari va aytimlariga, ular bilan bog'liq o'yin va harakatlariga borib taqaladi. SHu bois musiqa san'atining eng qadimiy namunalari tashqi olamdan olgan ta'sirchanlik taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan va inson tafakkuri orqali yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san'at turiga aylangan Xalq qo'shiqlarida xalqning hayoti, tarixi, kurashi, falsafasi, dunyoqarashi, turli hodisalarga bo'lgan munosabatlari, insoniy fazilatlari o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlarida insonning ruhiy olami ichki kechinmalari, turmushida sodir bo'luvchi ko'ngilli va ko'ngilsiz voqealar, g'amanduh yoki shodligi xurramliklari, mehnat mashaqqatlari, sevgi iztiroblari histuyg'ular orqali aniq badiiy obraz larda gavdalantiriladi. Manbalarda yozilishicha folklor qo'shiqlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab amalga oshirilgan. Folklor qo'shiqlari mehnatkash xalqning, bolalar hayoti va turmush tarzini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi umumiy tushunchalarini, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik hamda musiqiy qarashlarini o'zida mujassamlantirgan. Bularning barchasi folklor qo'shiqlari mazmuni va g'oyasining chuqur xalqchiligini ko'rsatadi. Folklor qo'shiqlari o'z xususiyatiga ko'ra o'zbek xalqining badiiy-musiqiy ijodi

sifatida asrlar davomida yaratilgan jamoaning ijod ma'sulidir. Folklor qo'shiqlarining xalq tomonidan yaratilib, o'z qabilasi, urug'i odatlari, e'tiqodlari, orzu-istaklari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari aks ettirilgan. Qabila va urug' a'zolariga ma'qul tushgan shu xildagi qo'shiqlar og'izdan-og'izga o'tib, jamoa ijodiga aylangan. Qo'shiqlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, sayqal topib xalqning folklor mulkiga aylangan. Folklor (folk – xalq, lore – bilim, donolik) – xalk ijodi termin hisoblanadi. Folklorni fanga birinchi bolib 1846 yilda ingliz arxeologi U.J.Toms olib kirgan. 1880-90-yillarda Folklor” atamasi ko'plab mamlakatlarda, jumladan Rossiyada ham qo'llanila boshlagan. O'zbekistonda dastlab “og'zaki adabiyot”, “og'zaki adabiyoti” atamalari qo'llangan. “Folklor atamasini 30 yillarning o'rtalaridan boshlagan”. 1939-yilda Hodi Rarifning “o'zbek folklori” xrestomatiyasi nashretlilgach bu termin o'zbek folklorshunosligida mustaxkam orin oldi Buxoro folklor yonalishi musiqa usulida sozandalik san'ati hamshakllangan bo'lib, u ayollar yodi bilan bog'liqdir.

Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida qo'shiq shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. Shuningdek “qo'shiq” so'zini YUsuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatul adab “lug'atida ham shu ma'nolarda uchratamiz.

Umuman olganda, o'zbek folklor qo'shiqchilik san'ati uzoq tarixdan e'tiboran xalq ijodiyotiga kirib kelganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek xalq og'zaki ijodining musiqa san'ati va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab va boshqalar nomi bilan yaratiladi. Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan “Abo Muslim” kitobi XI asrda yaratilgan. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri bo'lsa-da, kichik shaklidagi folklor qo'shiqlarining yuzaga kelishiga ham muhim ahamiyat kasb etgan. Agar ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan ishongan deb aytadigan bo'lsak, unda xalq o'zining eng noyob folklor janridagi qo'shiqlarini so'z mo'jizasi va musiqaning sehirli ohangi bilan bunyod etgan. Folklor qo'shiqlarini yaratishda kattalar ham bolalar ham birgalikda, baravar hissa qo'shgan. Bolalar folklor qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi fazilatlarni – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiatning salbiy hodisalariga qarshi kurashish va ularni engish malakasini tarbiyalaydi. Kattalar kichik yoshdagi bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachiq, qiziqmachiq singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Folklor qo‘shiq-lari namunalarini o‘rganish shundan dalolat beradi-ki, kishilar o‘z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo‘shiq bilan bezaganlar. Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, folklor ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan maktab yoshidagi bolalarga meros qoladigan qo‘shiq-larning salmoqli turi mehnat qo‘shiq-laridir. Mehnat qo‘shiq-lari xalq she‘riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo‘lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kattalarning hamda bolalarning mehnat jarayoni bilan bog‘liqdir. Bolalar dehqonlarni, hunarmandlarni ishlab turib qo‘shiq aytganlarini ko‘rgan, eshitgan, zavqlanib o‘zlari ham she‘rlar to‘qigan va kuyga solib ijro etib yurgan. Qo‘shiqning kattalar mehnatlarini engillatganligi, ayrim so‘zlari, undov nidolari ko‘pchilikni baravar harakat qilishga da‘vat etgan holatlari bolalar folklor qo‘shiq-larida ham ko‘zga tashlanadi. SHu sababdan ko‘p qo‘shiq-lardagi so‘zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo‘lgan. Ayrim so‘zlar vaqt-vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq va mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan. Folklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san‘ati elementlari qo‘shilib ketadi, shu sababdan folklor sinkretik san‘at deyiladi. Ayni vaqtda folklor asarlari san‘atning boshqa turlaridan o‘ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Folklorda so‘z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og‘zaki ijodi uzoq davrlardan byeri tarixiy yo‘ldoshi, uning chinakam aks sadosi bo‘lib kelgan. U tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazaridan, mehnatkash xalq pozitsiyasidan kelib chiqib, badiiy, formalarda baholaydi.

Xalq qo‘shiq-lari- bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo‘lib, insonni o‘rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta‘lim tarbiya jarayonida xalq qo‘shiq-lari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish ijtimoiy tarixiy hodisa sanaladi. Alisher Navoiy ham xalq qo‘shiq-lari, turlari haqida ma‘lumot berar ekan, surud, ayolgu, lahn va turki so‘zlarining qo‘shiq ma‘nosini bildirganini asoslaydi.

Xalq qo‘shiq-lari asosida milliy tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda o‘z aksini topadi:

1. Xalq qo‘shiq-larining ma‘lum maqsadga qaratilganligi.
2. Xalq qo‘shiq-larining insonparvarlik qoidalari.
3. Xalq qo‘shiq-larining hayot bilan va mehnat bilan bog‘liqligi.
4. Xalq qo‘shiq-larida milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.
5. O‘quvchilarni yoshi, sinfi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

Bundan tashqari, folklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug‘ullanadi: tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og‘zaki ijodida qanday aks etganini o‘rganadi; etnograflari xalqning urf-odatlarini qiziqtiradi; san‘atshunoslar esa folklordagi musiqa, raqs, o‘yin, xoreografiya va boshqalarni o‘rganadilar; tilshunoslar xalq ijodi tilining

lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozuv adabiyoti bilan munosabatlarini tekshiradilar.

Xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining bir qismini folklordagi qo‘shiq va uning turlari tashkil etadi. Qo‘shiqlar mazmuni jihatidan ham, badiiy shakli tomondan ham o‘ziga xos xususiyatiga ega. Uning namunalari dastlab iste‘dodli shaxslar tomonidan yakka yoki jamoa ishtirokida yaratilib, so‘ngra el orasida og‘zaki an‘ana uslubida, maxsus yozuvlarga bitilmasdan, o‘tib kelgan va ommalashgan. Shu asnoda asrlar davomida shakllangan xalq qo‘shiqlari va ularning turlari avloddan-avlodga meros qilib, bizga qadar ijtimoiy ong xotirasida saqlanib kelindi. Har bir qo‘shiq ma‘lum tarixiy sharoitda yuzaga kelib rivojlanish xalq qo‘shiqlarini mazmuni voqelikning lirik havasini badiiy o‘zlashtirib, ya‘ni yuz bergan hodisa, faktlarga munosabat his-tuyg‘u va kayfiyat orqali ifodalanadi. Mana shu xususiyatdan kelib chiqib ulug‘ mutafakkirlar qo‘shiq haqida o‘z fikrlarini bayon etganlar.

Qo‘shiqlarning ba‘zi bir obraz va yo‘sinlari juda qadimiy bo‘lib, ko‘pgina xalqlarga taalluqlidir. Unda xalq fikr boyligi, his-hayajon bilan birga ko‘pchilik ruhida daydib yurgan she‘riyat yorqin, nozik ravishda ko‘rinish berib turadi va sodir bo‘lgan hollarga ko‘pchilikning diqqat-e‘tiborini jalb qilib ta‘sir etadi. Bu qo‘shiqlardagi fikr, hislar xalqning turli sharoit, zamon ijtimoiy, maishiy hayot xususiyati bilan uning dunyoqarashi xarakteri bilan bog‘langan bo‘ladi.

O‘tmishda xalq orasida ba‘zi narsalarga sig‘inish, bo‘lgan ishni taqdirdan ko‘rish va shu singari hukmron sinflar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan g‘oyalar, diniy aqidalar yashab kelgan. Bunday g‘oyalar ifodalangan asarlarda o‘sha davrga xos fikrlar talqin qilinadi, xalq ruhi, kayfiyati ko‘rsatiladi. Mehnat ahli ijodining gullashi uchun barcha iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlarni yaratib berdi. Folklori o‘rganishda bularni hisobga olish kerak, albatta. Biroq folklorida o‘z izini qoldirgan xalqqa yot g‘oyaviy qatlamlar, tarixan cheklanishlar haqiqiy og‘zaki ijod asarlarining g‘oyaviy mohiyatini, uning tom ma‘noda xalqchil xarakterda ekanligini, butun mohiyati bilan chinakam xalq san‘ati bo‘lib kelganligini aslo inkor qilolmaydi. Jamoaviylik, og‘zakilik, an‘anaviylik, o‘zgaruvchanlik, variantlilik kabilar folklorning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, u o‘ziga xos ijtimoiy mohiyat va badiiy tizimga ega. Ma‘lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari jamoa tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan, keyinchalik esa iste‘dodli kishilar tomonidan yaratildi. Ular o‘z ijodida qabila va urf odatlari, xohishlari, e‘tiqodlari, tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari hamda dunyoqarashlarini hikoya qildilar. Qabila va urug‘ a‘zolariga ma‘qul tushgan bu asarlar og‘izdan-og‘izga o‘tib jamoa ijodiga aylangan.

Ma‘lumki, ayrim tarixiy manbalarni, dalillarni to‘liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o‘zgarishi, qorishtirib talqin etilishi mumkin. Ba‘zan esa dostonlarda mavjud bo‘lgan she‘riy

parchalarning unutilishi mazkur janrni ertak shakliga keltirib ham qo'yishi mumkin. Yoki aksincha, ertakning dostonga aylanishi ham ehtimoldan xoli emas. Folklor asarlarida yuz berishi mumkin bo'lgan bunday hodisa uning g'oyaviy-badiiy, estetik qimmatini kamaytirmaydi. An'anaviylik u o'zining tarixiy manbalariga ega. Folklor asarlari-ning dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan. Nisbatan barqaror bo'lgan ibtidoiy turmush shart-sharoitlari shunday urf-odatlar va dunyoqarashlarning in'ikosi sifatida yuzaga kelgan folklor asarlarining sujeti, obraz va motivlarida ham muayyan barqarorlikni hosil qilgan. Folklor asarlarining og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi ularning o'zgarimas, barqaror shakllari an'analarni yuzaga keltirgan. Ma'lumki, tarixiy taraqqiyot natijasida ba'zi bir asarlar dastlabki shaklini o'zgartirishi, hatto so'nib, iste'moldan chiqishi mumkin. Masalan, 1920—1930- yillarda doston yaratish sekin-asta so'na boshlagan bo'lsa, qo'shiq, yaratish etmoqda.

Xalq ijodining har bir namunasi asrlar davomida ko'plab talantli xalq ijodkorlari tomonidan nihoyatda pardoqlangan, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. Demak, estetik sezgilarimiz rivojlanishida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tilimiz boyliklarini his qilishimizda folklorning roli beqiyosdir. Shuni aytish joizki, folklor kasbiy san'at turlari - adabiyot, teatr, musiqa, kino va boshqalarning taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.

Xalq qo'shiqlarining ma'nosi tengdir. Mazmun jihatdan oilaviy maishiy, ijtimoiy-tarixiy, mavzularni o'z ichiga oladi. Janr ya'ni musiqiy asar turlariga qo'shiqlar ajratilsa, ular tarixiy lirik va marosim qo'shiqlarni o'z ichiga oladi. Xalq hayotda doim mehnat qiladi, mehnatning turi va shakli ko'p.

Xalq hayotidagi tarixiy o'zgarishlarda esa qo'shiq faqat mavzu bilangina farq qilmay, g'oya obrazlar bilan ham o'zgaradi va hayotga bog'lashda yangi ijtimoiy vazifa kasb etadi. Qo'shiqdagi qahramon boshqalarning qayg'u va shodligiga lirik, boshqalar esa bu qayg'u, shodlikni o'ziniki deb biladilar. Go'zallik, ezgulik, oqilonalikning to'la mujassamligidan tarkib topgan she'rning xalq og'zaki badiiy ijodidagi turi sof xususiyatlarga ega. Qo'shiqlardagi real haqiqat barchaga ta'sir etadi. Qo'shiqlarning tipi sodda bo'lsa, ularda biror bir maqsad uchun ishlatilgan so'z, ibora o'z o'rnida qo'llanilsa, har bir misrada fikr mavjud bo'ladi. Bu she'rlar kuyga solishga qulay, qisqa esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo'lgan. Qo'shiqlarda davrning muhim masalalari kuylanadi va shu tufayli tez tarqaladi. O'zbek musiqa merosida qo'shiq janri va uning turlarini rivojlanishi va shakllanishi haqidagi tarixiy she'riy, badiiy tomonlariga nisbatan ham ma'lumotga egamiz.

O'zbek musiqa merosini qatlamidan biri – o'zbek xalq musiqa ijodini o'rganish fan tarmoqlari keyingi davrlarda yuzaga kelgan. Buning davrimizga qadar og'zaki uslub vositasida yetib kelgan musiqiy meros namunalari amaliy o'zlashtirish hamda

ilmiy tadqiq etish ishlari dastlabki paytlarda mutaxassis olimlar, shu jumladan, etnomusiqashunoslar oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi.

Avvalambor bu merosni to'plash, uni mavjud bo'lgan ovoz taratish vositalariga yozib olish va nota yozuvlarida nashr etish zarur edi. Chunki, bu borada o'tmishdan qolgan yozma yodgorliklar nihoyatda oz bo'lib, ularning bori ham, asosan, o'rta asrlar davrida keng rivojlangan bo'lgan kasbiy musiqasiga taalluqlidir.

Musiqqa ijodida qo'shiq janri va uning turlariga doir esa to'liq bo'lmagan yozuvlar, ya'ni xalq qo'shiqlarining she'rlari bayon etilgan yozma manbalar uchraydi xolos. Xususan, shunday qimmatli manbalardan biri XI asrda yashagan ulug' bobolarimiz Mahmud Qashg'ariyning Devoni lug'atit turkl (turkiy so'zlar davoni) asaridir. Ushbu devonda ilmiy hikmat, pand-nasihati, mehnatga shijoat, sevgi tuyg'ulari kabi mavzularda she'riy parchalar keltirilgan. Bu she'rlar ma'lum ohanglarda kuylanganligi shubha tug'dirdimaydi. Zero, she'riyat —ilgari kuylash uchun yo musiqqa jo'rligida aytish uchun yaratilgan. Devondagi she'rlar ham bu fikrni bir qancha bo'lsada tasdiqlaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki musiqqa ta'limida xalq qo'shiqlarini o'rgatish o'quvchilarni folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashga metodik to'g'ri yondashish asosida folklor qo'shiqlarining tarbiyaviy-ta'sir imkoniyatlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Xalq qo'shiqlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, insonning his-tuyg'ularini, kechinmalarini o'ziga xos badiiy tilda ifodalaydi. O'quvchilarni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit yaratadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida ishilarini ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo'lib sanaladi. Musiqqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo'shiq bilan, musiqqa bilan tirik. Kuy-qo'shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go'zallikni tasavvur etish qiyin. Qo'shiq zavq ehtiyoji, eng go'zal, eng oliyjanob orzu va hayotiy g'oya hayqirig'idir. Xalq qo'shiqlari umuminsoniy qadriyatlarini o'quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar o'quvchilarda milliy kuy-qo'shiqlarga ixlos uyg'otadi, musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg'usini o'stirib, musiqiy o'quvi va didini o'stiradi, talabalarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo'shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi, alla, lapar, terma qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o'sib boradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. T.: «Fan», 1998. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. -T.: Mehnat, 2001. -195 b.
2. TA’LIM, VA INNOVATSION TADQIQOTLAR. “SINGER WORKING AND DEVELOPING ON THE VOICE”.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch .- T.: Manaviyat, 2008
4. Yoshiyena, U. M. (2020). THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).